



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Odilova Xayriniso G'ulom qizi

Samarqand davlat universiteti O'zbekiston-Findlandiya pedagogika instituti magistranti

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA DARSLARGA BO'LGAN QIZIQISHLARNI STEAM TA'LIM DASTURI ASOSIDA OSHIRISH

Annotatsiya: STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga ta'siri shundan iboratki amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar maktab dasturiga kiritilmagan juda ko'p atrof muhit hodisalari haqida bilimlar qiziqtiradi. Bu qiziqishlar bolaning ko'pincha e'tiborga olinmaydigan ijodiy o'yinlarga nisbatan qiziqishlarida ham namoyon bo'ladi. Bunday o'yinlarda uning ijtimoiy qiziqishlari, emotsiyalari, jamoa uchun tashvishlanish kabi hislari aks etadi. Qiziquvchanlik kichik maktab yoshidagi bolalarning keng aqliy faolligini namoyish etishi hisoblanadi.

Kutilmagan bir narsa sababli tug'ilgan taajjublanish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni dastlabki qarashda kam uchraydigan va odatdan tashqari bo'lib ko'ringan narsalarni diqqat bilan ko'zdan kechirishga majbur etadi. Shunday qilib, taajjublanish boshlang'ich sinf o'quvchilarini hodisalarni bilishga g'oyat daraja rag'batlantiradi. [1.]

STEAM tizimi boshlang'ich sinf o'quvchilarini diqqatini jalb qilishning samarali usullaridan biri hisoblanadi.

STEAM yondashuvi o'quv samaradorligiga ta'siri: Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat



sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari «o'qib oladilar».[2.]

STEAM dasturlari 7-14 yoshdagi o'quvchilarning muttasil ravishda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga qiziqishlarini orttiradi. Masalan, fizika darslarida yerning tortish kuchi o'rganilganda, doskada formulalarni yozib tushuntirilsa, STEAM to'garaklarida raketalar, samolyotlar, parashyutlar qurib, ishga tushirib o'z bilimlarini mustahkamlaydilar.

O'quvchilar o'zlari ko'rmagan yoki eshitmagan atamalarni har doim ham tez anglab yetmaydi. Masalan, temperatura ortishi bilan bosimning yoki hajmning ortishi. STEAM mashg'ulotlarida ular qiziqarli eksperimentlar o'tkazganlarida bu atamalarni osongina tushunib olishlari mumkin [3]

STEAM ta'limining afzalliklari:

• Ta'lim berishni o'quv fanlari bo'yicha emas, balki “mavzular” bo'yicha integratsiyalab olib borish;

- Ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash;
- Tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish va muammolarni yechish;
- Faol kommunikatsiya va jamoada ishlash;
- O'z kuchiga ishonish hissini ortishi;
- Texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish;
- Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuv;
- Ta'lim va karera orasidagi ko'prik;
- O'quvchilarni texnologik innovatsion hayotga tayyorlash [4]

STEM ta'limi bolalar kelajagining kalitidir, ularga jamoa bo'lib ishlash, birgalikda qarorlar qabul qilishni o'rganish, muammolarni ijodiy yechish ko'nikmalarini oshirish, muloqot ko'nikmalarini yaxshilash, tushunchalarni osonroq o'rganish va saqlab qolish, tasavvur va zukkolikni oshirishga yordam beradi [5]

Yaxshi tashkil etilgan STEAM ta'lim dasturida olib borilgan dars mashg'ulotlari boshlang'ich sinf o'quvchilarini darslarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish bilan birgalikda dars mashg'ulotlarida faol kommunikatsiya va jamoada ishlash, o'z kuchiga ishonish hissini ortishi, texnik fanlarga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish kabi hislatlarni namoyon qiladi.

STEAM ta'lim tizimi hozirgi kunda tez rivojlanib kelayotgan va ommalashib borayotgan ta'lim dasturi sirasiga kiradi. Ayniqsa STEAM ta'lim tizimi boshlang'ich sinf o'quvchilarida keng ko'lamli imkoniyatlar va qiziqishlariga sabab bo'lmoqda. Hozirgi kunda Prezident maktablarida STEAM ta'lim dasturi doirasida darslar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda STEAM ta'lim dasturini yaxshi o'zlashtirishimiz uchun STEAM ta'lim tili bo'lgan ingliz tilini yaxshi o'zlashtirib, boshlang'ich sinf o'quvchilarida STEAM ta'lim dasturini qo'llashimiz darkor.

**Foydalingan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxs xususiyatlari - fayllar ...
<https://fayllar.org › mavzu-kic...>
2. <https://zen.yandex.ru/media/id/5a5114cffd96b1fef2b36f69/steam-talim-tizimi-nima-5fe5143db590cf1d642bf103>
3. <https://zarnews.uz/uz/post/oqituvchilar-uchun-steam-laboratoriya-oz-faoliyatini-boshladi>
4. <https://hozir.org/steam-va-smart-talim-texnologiyasi-faniga-kirish.html?page=9>
5. <https://www.hwlibre.com/uz/poya-shoxcha/>
6. Fayziyev M.A. Kvalimetrik yondashuv asosida iqtisodiy fanlarni o'qitish // "Fan, ta'lim va amaliyot integrasiyasi" ilmiy-metodik jurnali (ISSN: 2181-1776) Vol. 3 No. 5 (2022). May, 2022. 300-309 b.
<https://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/540/482>
7. Kiyamov N.S. Characteristics of the formation of musical culture in students //Journal of Critical Reviews. – 2020. – T. 7. – №. 5. – C. 1722-1729.
https://drive.google.com/file/d/1kv4ya8TomZeRXj_PYZHRpTZbC0JZhKK/view